



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **20,2** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **1,3** mingtaga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,5** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **2603** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Shahar va tumanlar bo'yicha 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023-y.		2024-y.
21 528	Qoraqalpog'iston Respublikasi	20 200
5 548	Nukus sh.	5 040
1 784	Amudaryo	1 773
1 869	Beruniy	1 829
354	Bo'zator	337
634	Qorao'zak	526
729	Kegeyli	649
1 377	Qo'ng'iro't	1 154
555	Qonliqo'l	552
570	Mo'ynoq	519
801	Nukus	758
621	Taxiatosh	591
376	Taxtako'pir	328
2 263	To'rtko'l	2 300
1 120	Xo'jayli	1 035
931	Chimboy	871
510	Shumanay	416
1 486	Ellikqal'a	1 522

2024- yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **20 200** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 603** tani tashkil etdi.


2024- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Nukus shahrida **5 040** tani yoki jamiga nisbatan **24,9 %** ni tashkil etdi.

1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Shahar va tumanlar kesimida 2024- yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*



Qoraqalpog'iston Respublikasida 2019-2024- yillar 1-oktabr holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati birlikda



2024- yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **12,5** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **1,0** birlikka kamaygan.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Nukus tumanida **20,5** birlik, Bo'zatov tumanida **18,1** birlik, Mo'ynoq tumanida **17,7** birlik, Qonliko'l tumanida **16,5** birlik va Qorao'zak tumanida **16,4** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko‘rsatkich

Nukus tumani
20,5 birlik.




O‘rta ko‘rsatkich

Kegeyli tumani
13,0 birlik.



Eng past ko‘rsatkich

Taxiatosh tumani
8,7 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Nukus tumanida **20,5** birlik, Bo‘zatov tumanida **18,1** birlik, Mo‘ynoq tumanida **17,7** birlik, Qonliko‘l tumanida **16,5** birlik, Qorao‘zak tumanida **16,4** birlik, Nukus shahrida **14,8** birlik, Taxtako‘pir tumanida **13,8** birlik, Kegeyli tumanida **13,0** birlik va To‘rtko‘l tumanida **12,3** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1-oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Qorao‘zak tumani

16,4

Mo‘ynoq tumani

17,7

Nukus tumani

20,5

Qonliko‘l tumani

16,5

Bo‘zatov tumani

18,1


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar,

2023-y. birlikda yanvar-sentabr 2024-y.

1 009	Nukus sh.	649
519	Beruniy	274
395	To'rtko'l	253
399	Ellikqal'a	226
379	Amudaryo	214
427	Qo'ng'iro't	151
234	Xo'jayli	116
202	Shumanay	106
140	Nukus	96
255	Chimboy	91
130	Mo'ynoq	75
146	Qonliko'l	75
209	Kegeyli	69
113	Taxiatosh	62
79	Bo'zatov	59
141	Taxtako'pir	44
181	Qorao'zak	43

2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Nukus shahri – **24,9** %, Beruniy tumani – **10,5** %, To'rtko'l tumani – **9,7** %, Ellikqal'a tumani – **8,7** %, Amudaryo tumani – **8,2** %, Qo'ng'iro't tumani – **5,8** %, Xo'jayli tumani – **4,5** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **945** ta, sanoatda **479** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **347** ta yangidan tashkil etilgan.


Respublikaning tumanlar va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri **649** ta, Beruniy tumanida **274** ta, To'rtko'l **253** ta, Ellikqal'a tumanida **226** ta, Amudaryo tumanida **214** ta, Qo'ng'iro't tumanida **151** ta hamda Xo'jayli tumanida **116** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr oylar davomida jami **16 969** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **5 680** (yoki **33,5 %**) ta, xizmatlar sohasida - **3 617** (yoki **21,3 %**) ta, sanoat sohasida - **3 555** (yoki **20,9 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **3 164** (yoki **18,6 %**) ta va qurilish sohasida - **953** (yoki **5,6 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **64,0** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **1,8** punktga kupaygan.




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **97,2** % ni, chakana savdoda **96,9** % ni, yo'lovchi aylanmasida **96,4** % ni, yo'lovchi tashishda **93,2** % ni, yuk aylanmasida **90,2** % ni, qurilishda **87,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati





Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda


Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda


Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda

Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 126,3** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Beruniy (**734,5** mlrd. so'm), Amudaryo (**691,8** mlrd. so'm), Nukus shahri (**583,3** mlrd. so'm), Shumanay (**465,0** mlrd. so'm), va Qo'ng'iro't (**408,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Bo'zatov tumanida (**45,3** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega tumanlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 35,5 % ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bo‘zatov tumanida (100,0 %), Shumanay tumani (93,6 %), Beruniy tumani (91,1 %), Nukus tumani (80,8 %), Ellikqal’a tumani (80,1 %), Taxtako‘pir tumani (70,3 %), Mo‘ynoq tumani (64,1 %), Amudaryo tumani (56,9 %), Qorao‘zak tumani (48,3 %), To‘rtko‘l tumani (46,7 %) va tashkil etdi.


Bo‘zatov	100,0
Shumanay	93,6
Beruniy	91,1
Nukus	80,8
Ellikqal’a	80,1
Taxtako‘pir	70,3
Mo‘ynoq	64,1
Amudaryo	56,9
Qorao‘zak	48,3
To‘rtko‘l	46,7
Xo‘jayli	43,4
Qo‘ng‘irot	38,0
Chimboy	37,6
Kegeyli	37,5
Qonliko‘l	16,3
Nukus sh.	10,1
Taxiatosh	4,1

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **5 430,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **87,0** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **103,6** % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Nukus shahri (**1 328,8** mlrd. so'm), To'rtko'l (**442,8** mlrd. so'm), Ellikqal'a (**348,7** mlrd. so'm), Beruniy (**322,9** mlrd. so'm), Amudaryo (**245,1** mlrd. so'm) Xo'jayli (**188,7** mlrd. so'm) Taxiato'sh (**170,3** mlrd. so'm) hamda tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4 195,8** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **29,3 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **134,9 %** ni tashkil qildi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Nukus shahri (**996,0** mlrd. so'm), Qorao'zak (**808,0** mlrd. so'm), To'rtko'l (**417,8** mlrd. so'm), Amudaryo (**267,1** mlrd. so'm), Beruniy (**261,2** mlrd. so'm), Qo'ng'iro't (**257,3** mlrd. so'm), Ellikqal'a (**250,2** mlrd. so'm) hamda Chimboy (**200,2** mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **10 021,9** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **97,2** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **104,7** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd.so‘mda




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Amudaryo (**2 011,3** mlrd. so‘m), Beruniy (**1 205,3** mlrd. so‘m), To‘rtko‘l (**1 077,6** mlrd. so‘m) Ellikqal‘a (**949,9** mlrd. so‘m), Chimboy (**833,0** mlrd. so‘m), hamda Xo‘jayli (**555,2** mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi




2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **8 517,0** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **96,9 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **109,2 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi




Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Nukus shahri (**1 752,2** mlrd. so'm), To'rtko'l (**924,2** mlrd. so'm), Xo'jayli (**744,7** mlrd. so'm), Amudaryo (**674,5** mlrd. so'm), Qo'ng'iro't (**621,1** mlrd. so'm), Ellikqal'a (**489,6** mlrd. so'm) va Chimboy (**420,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **14 098,5** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **71,8 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **114,1 %** ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Nukus shahri (**1 938,3** mlrd. so'm), To'rtko'l (**612,7** mlrd. so'm), Amudaryo (**416,5** mlrd. so'm), Xo'jayli (**413,2** mlrd. so'm), Beruniy (**406,6** mlrd. so'm), Qo'ng'iro't (**376,8** mlrd. so'm), va Ellikqal'a (**335,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori hajmga va ulushga ega bo'lgan turlari (yanvar-sentabr oylarida)

<i>Hajmi, mlrd. so'mda</i>		<i>Ulushi, foizda</i>
6 993,6	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	49,6
2 972,4	Savdo xizmatlari	21,1
1 675,6	Transport xizmatlari	11,9
528,6	Shaxsiy xizmatlar	3,7
486,6	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,5
454,8	Boshqa xizmatlar	3,2
142,2	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,8
215,3	Ijara xizmatlari	1,5
150,7	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,1
112,4	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,8
111,9	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	0,8
84,4	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,6
19,0	Moliyaviy xizmatlar	0,1


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi yashash va ovqatlanish xizmatlari **49,6 %** (6 993,6 mlrd. so'm), savdo xizmatlarida – **21,1 %** (2 972,4 mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **11,9 %** (1 675,6 mlrd. so'm) hamda shaxsiy xizmatlarda – **3,7 %** (528,6 mlrd. so'm) ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,1 %** (19,0 mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, ming. AQSH dollar.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, ming. AQSH dollar.



Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



■ hajmi, ming. AQSH dollar ■ ulushi, %


2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **77 019,8** ming. AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **28,1** % ini tashkil etdi.



2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Taxtako'pir, Bo'zatov, Shumanay, Nukus tumani tumanlarida – **100,0** %, Beruniy tumanida – **99,3** %, Qorao'zak tumanida – **96,3** %, Ellikqal'a tumanida – **92,3** %, Amudaryo tumanida – **91,8** % va Qo'ng'iro't tumanida – **85,8** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Nukus shahrida – **3,4** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **129 011,9** ming. AQSH dollarini yoki jami importning **69,5** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Mo'ynoq, Bo'zatov, Amudaryo, Shumanay, Beruniy tumanlarida – **100,0** %, Nukus tumanida – **99,8** %, Ellikqal'a tumanida – **98,2** %, Qo'ng'iro't tumanida – **95,8** %, To'rtko'l tumanida – **93,2** %, hamda Chimboy tumanida – **64,6** %, ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,4 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **90,2 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,2 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,4 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,1 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 787 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 259 (32,9 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 444 (56,4 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 84 (10,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 44,1 % (347 ta), xizmatlar sohasida – 26,8 % (211 ta), sanoatda – 11,9 % (94 ta), qurilishda – 8,6 % (68 ta) ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,5 % (67 ta) tashkil etdi.

2024- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2024-yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahri (209 ta), Ellikqal'a (76 ta), To'rtko'l (69 ta), Beruniy (63 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2019-yilning III choragida 242 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning III choragiga kelib esa 259 taga yetgan yoki 2019-yilning III choragiga nisbatan 17 taga kupaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2019-yilda 342 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-sentabrida 444 ta yoki 102 taga kupaygan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019-yilda 41 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 2024-yilga kelib 84 tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 43 taga kupaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning III choragida **329** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib esa **261** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **68** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning III choragida **259** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragida **392** ta yoki **133** taga kupaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning III choragida **36** ta bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **43** tani tashkil etib, **7** taga kupaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **38,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **32,9** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **5,8** % birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **54,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragida **56,4** % yoki **1,7** % birlikka kupaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilda **6,6** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **10,7** % ga yetgan yoki **4,1** % ga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **52,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **33,2** % ga yetgan yoki 2019- yilning III choragida nisbatan **19,4** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **41,4** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **49,8** % yoki **8,4** % birlikka kupaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning III choragida **5,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **5,5** % yoki **0,3** % birlikka kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **37,3** % ni, savdoda – **35,2** % ni, xizmatlar sohasida – **34,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **66,2** % ni, sanoatda – **59,6** % ni, savdoda – **55,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **14,7** % ni, xizmatlar sohasida – **11,8** % ni, sanoatda – **11,7** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yaxshilangan deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 50,7 % ni, savdoda – 42,4 % ni, xizmatlar sohasida – 40,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 58,8 % ni, sanoatda – 58,5 % ni, xizmatlar sohasida – 55,9 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yomonlashgan deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – 5,3 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida savdoda – 4,5 % ni, savdoda – 3,7 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	35,4	52,2	12,4
Band bo'lganlar soni	19,5	71,9	8,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,4	56,4	10,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	23,4	66,1	10,4
Raqobat muhiti	34,0	57,7	8,3

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	37,1	57,6	5,3
Band bo'lganlar soni	18,6	77,8	3,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,4	61,4	5,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	27,4	67,3	5,2
Raqobat muhiti	34,6	61,0	4,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli